



2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **173,3 trln.so'mni**, o'sish sur'ati - **111,2 % ni** tashkil etdi
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o'rtacha **5,3 mln.so'mga** yetdi
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **40,3 % ni** tashkil etib, aholi jon boshiga o'rtacha **2,1 mln.so'mga** to'g'ri keldi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **35,0 % ni** tashkil etdi


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 173,3 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 9,0 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 27,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 2,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 22,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'rishiga qo'shgan hissasi









Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,0 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,4 martaga, kaolin - 1,2 martaga, gaz kondensati – 10,5 % ga va tabiiy gaz – 6,8 % ga oshgan. Shu bilan birga neft qazib olish hajmining 9,2 % ga, shag'al va ko'mirning – 0,4 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2017 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	Ko'mir, ming t.		
3373,0		3360,9	99,6 ↓
	Neft, ming t.		
687,3		624,3	90,8 ↓
	Tabiiy gaz, mln.kub.m.		
46325,1		49462,9	106,8 ↑
	Gaz kondensati, ming t.		
1581,3		1747,9	110,5 ↑
	Chaqiq tosh, ming t.		
791,9		1109,8	140,1 ↑
	Shag'al, ming t.		
327,9		326,6	99,6 ↓

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 132,4 trln.so'mni va o'tgan yilga nisbatan 109,0 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,7 % ni (2017 yil yanvar- oktyabr oylarida - 1,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 28,1 % (21,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 30,8 % (27,1%) va quyi texnologiyali - 39,5 % (49,5 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Respublika bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o'sishiga o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sezilarli hissa qo'shgan holda 6,9 % ko'rsatkich bilan 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,6 % ni tashkil etdi.







Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi 24,2 % (2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 136,4 foiz) ni tashkil etgani holda to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish 17,9 % (110,4 foiz) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish 17,8 % (94,2 foiz) ni, metallurgiya sanoati 15,2 % (101,7 foiz) ni va kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish 10,4 % (102,9 foiz) ni tashkil etdi.

Texnologik jihozlarni kapital ta'mirlash ishlari kimyo korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2017 yil yanvar-oktyabrga nisbatan 122,7%), ammoniy nitrat (112,0%), akril asosli bo'yoq va laklar (132,4%), superfosfatlar (168,5%), formaldegid (1,4 martaga), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2,3 martaga) bo'yicha o'tgan yilning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oshishi ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligiga yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar ham respublika bo'yicha o'rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mahsulotlarining oshishiga imkon berdi. 2017 yil yanvar-oktyabrga nisbatan yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmlari: pluglar 64,0 martaga, traktorlar 4,6 martaga, g'alla o'rish kombaynlari 10,0% ga oshirildi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilgansiz), dona			
112612		148305	131,7 ↑
Yuk avtomobillari, dona			
3198		3368	105,3 ↑
Avtobuslar, dona			
784		532	67,9 ↓
Avtomobil dvigatellari, dona			
77323		115340	149,2 ↑
Paxta tolasi, ming t.			
719,5		627,9	87,3 ↓
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.			
150,7		128,5	85,3 ↓

2017 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
8041		8358	103,9 ↑
Avtomobil benzini, ming t.			
910,7		966,8	106,2 ↑
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
813,6		900,1	110,6 ↑
Portlandsement, ming t.			
7207,2		6900,3	95,7 ↓
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.			
9883,0		13086,3	132,4 ↑
Traktorlar, dona			
588		2710	4,6m ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,2 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,4 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 1,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Elektroenergiya, mln.kVt/s.

49051,9



50335,3

102,6



Issiqlik energiyasi, ming Gkal.

22004,8



21621,2

98,3



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,7 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 27,1 % ga, tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 1,9 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 27,0 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 34,3 % ga oshganligi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna			
206,2		262,9	127,1 ↑
Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna			
1825		3507	192,2 ↑
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm			
104,6		140,5	134,3 ↑

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 69,9 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 9,9 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 40,3 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 64,4 % dan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida 68,6 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,4% ni (2017 yil yanvar-oktyabr oylarida 6,8%) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 68,2 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130,0% ni tashkil etdi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 31,7% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 39,3% gacha oshdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi,%.



Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmini o'sishiga qo'shma korxonalarining qo'shgan hissasi 7,6% ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishni imkonini berdi.

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi 22,1 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 77,8 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,2 %), Toshkent viloyati (15,7 %), Andijon (10,8 %), Navoiy (10,5 %), Qashqadaryo (6,3 %) va Farg'ona (5,8 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Toshkent shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 27,1 %), Andijon (21,3 %), Toshkent (9,2 %) hamda Samarqand (8,9 %) viloyatlarida ishlab chiqarildi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar Andijon (2017 yil yanvar-oktyabrga nisbatan 136,1%), Surxondaryo (115,8%), Xorazm (116,6%), Namangan (111,7%), Toshkent (109,9%) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,3 %), Xorazm (123,3 %), Sirdaryo (112,9 %) viloyatlari hamda Toshkent (111,0 %) shahrida iste'mol tovarlarini sezilarli darajada oshdi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (18939,2 ming so'm), Toshkent shahrida (13407,6 ming so'm), Toshkent (9446,8 ming so'm) va Andijon (6158,8 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (5272,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi respublika darajasi 2126,3 ming so'm bo'lgani holda Toshkent shahrida 7619,1 ming so'mni, Andijon viloyatida 4901,5 ming so'mni, Navoiy viloyatida 2251,7 ming so'mni, Toshkent viloyatida 2248,0 ming so'mni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarning o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,0 % tashkil etmoqda.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 72,9 %), Namangan (69,6 %), Jizzax (65,6 %) va Samarqand (52,2 %). Shu bilan birga, eng kichkina ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (19,8 %), Navoiy (15,0 %), Toshkent (20,7 %), Andijon (21,4 %) va Qashqadaryo (22,3 %) viloyatlarida kuzatildi.

Sanoat statistikasi boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 230-80-46